

№4, 2022 y. 21-fevral

Parij fanlar  
akademiyasi

# DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent - 2022 y.



*"Ertangi kunini tasavvur qilgan, raqobatbardosh bo'laman degan davlat albatta ilmga e'tibor berishi kerak. Sizlarning tilingizda aytganda, biz ham mamlakatimizni progressiv va innovatsion rivojlantirishimiz zarur. Buning uchun olimlar, tadqiqotchilar Vatanga xizmat qilishi, ilmiy-texnologik ishlamalarini barcha sohalarda, ayniqsa, viloyatlarda joriy etishi kerak"*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Sh.M.Mirziyoyev

**"Parij fanlar akademiyasi". Dayjest. - T.: 2022. 16-b.**

**"Parij fanlar akademiyasi". Dayjest O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.**

**Mualliflar jamoasi:**  
Abduraxmonov I.Y.  
Turdikulova Sh.O'.  
Abduvaliyev A.A.  
Musayeva R.A.  
Barbu G.F.

**Texnik muharrir:**  
Rayimjonov X.G'.

© O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2022 y.



# Mundarija

Parij fanlar akademiyasi	4
Tuzilmasi	5
Akademiya missiyalari	7
Akademiya arxivi	10
The Comptes Rendus - Mathématique	12
Akademiya islohotlari	13
Manbalar	15

# Parij fanlar akademiyasi

Parij fanlar akademiyasi (fransuzcha: Académie des sciences – Fanlar akademiyasi) – dunyodagi eng birinchi Fanlar akademiyalaridan biri. XVII va XVIII asrlarda Yevropada ilmiy tadqiqotlarning old frontida bo‘lgan [1]. Akademiya 17-asrda Parij jamiyatini qamrab olgan ko‘p sonli ilmiy va falsafiy doiralardan o‘z ibtidosini boshlaydi. Tez orada ushbu intellektual doiralar faol tarzda ilmiy tajribalar o’tkazib, boshqa manfaatdor tomonlar bilan o‘z natijalari bilan o’rtoqlashishgan [2].



1666 yilning 22 dekabrida Kolber tomonidan to‘plangan taxminan o’n besh nafar olimlar Parijdagi Viven ko‘chasida Qirol kutubxonasida birinchi qo’shma yig‘ilishni o’tkazishadi. Lyudovik XIV ularga "jamoat manfaati va o‘z hukmronligining shonsharafi uchun ilm-fanni ilgari surish" vazifasini yukladi. Shunday qilib Parij fanlar akademiyasi yuzaga keldi. Bu bayonnomalari muassasa arxivida saqlanadigan yalpi majlislarning azaliy an’analarini boshlab berdi. Ular vaqt o’tishi bilan ilmiy fikr evolyusiyasining bebaho dalillarini taqdim etadilar [3].

Akademiya ilmiy siyosat masalalari bo‘yicha maslahatlashuvlar uchun tashkil etilgan edi. Asta-sekin ushbu funksiyani Akademiyadan boshqa muassasalar olib qo‘yishdi va unga a’zolik birinchi navbatda faxriy hisoblanadi. Akademiyada 248 nafar a’zo, 99 nafar muxbir a’zo va 135 nafar xorijiy muxbir a’zo bor. Akademiyani prezident boshchiligidagi "maxfiy qo‘mita" boshqaradi [4]. 2016 yilda Akademiya o‘zining 350 yilligini nishonladi [5].



# Tuzilmasi



Akademiya 5 ta fizika-matematika fanlari bo'linmalari (geometriya, mexanika, astronomiya, geografiya va navigatsiya, fizika), 6 ta kimyo va tabiiy fanlar bo'linmalari (kimyo, mineralogiya va geologiya, botanika, zoologiya, iqtisodiyot, tibbiyat va jarrohlik) va sanoatda fanni qo'llash bo'linmasidan iborat [6].

Fanlar Akademiyasi "maxsus qo'mita", "maxfiy qo'mita" va uchta delegatsiyalar faoliyatini belgilaydigan Byuro tomonidan boshqariladi. Fanlar akademiyasining apparati prezident, vitse-prezident va har bir bo'linmadan bittadan - ikkita doimiy kotiblardan iborat. Apparat Akademianing ilmiy hayoti va ishini tashkil etadi va uning ilozim tarzda faoliyat yuritishini nazorat qiladi [7].



Byudjet, xodimlar, jamg'armalar, hayr-ehsonlar va Akademianing mol-mulkini boshqarishga oid qarorlar doimiy kotiblar tomonidan ofis a'zolari va ikkita saylangan a'zodan iborat ma'muriy komissiya bilan maslahatlashgandan so'ng qabul qilinadi.



Patrik Flandrin



Antuan Triller

# Tuzilmasi

Byuronning 2022 yildagi tarkibi:



- Eten Giz - matematika va fizika fanlari, Koinot to'g'risidagi fanlar bo'limining doimiy kotibi;
- Antuan Triller - kimyo, biologiya va tibbiyot fanlari bo'limining doimiy kotibi;
- Patriks Flandrin - prezident;
- Alen Fisher - vitse-prezident.

"Maxsus qo'mita" tarkibiga Byuro a'zolari, ma'muriy komissiyaning ikki saylangan akademigi, saylangan a'zolar seksiyalarining delegatlari kiradi. Qo'mita a'zolari oyda bir marotaba yig'ilishadi.

Qo'mita Akademianing ish sohasi: tadqiqotlar, fan va jamiyatning yo'nalganligi va tuzilmasi, Akademianing hisobotlari va fikr-mulohazalari, konferensiyalar uchun takliflar, qo'mitalarni tuzish va boshqalarni belgilaydi.



Maxsus qo'mita "maxfiy qo'mita"ning ovoz berishiga taqdim etiladigan qarorlarni tayyorlaydi.


**"Maxfiy qo'mita"**

Ushbu tarixiy atama Fanlar akademiyasining yopiq eshiklari ortidagi umumiy yig'ilishni anglatadi. "Maxfiy qo'mita" Akademiyaga tegishli barcha qarorlarni uning ustavi va ichki nizomlarida nazarda tutilgan qoidalar doirasida qabul qiladi. Uni Akademiya prezidenti boshqaradi.

# Akademiya missiyalari

Bugungi kunda Akademiya a'zolari Akademiya tomonidan tashkil etilgan doimiy qo'mitalar va ishchi guruhlarda millat va Akademiya jamg'armalari oldidagi o'z missiyalarini bajaradilar [8].

## 1-missiya: Ilmiy hayotni rag'batlantirish



- dolzarb ilmiy masalalar bo'yicha munozaralarda ishtirok etish;
- milliy va xalqaro ilmiy anjumanlarni tashkil etish;
- Akademiya jamg'armalari hisobidan, ko'pincha alohida homiylar, oilalar yoki kompaniyalarning xayr-ehsonlari orqali moliyalashtiriladigan mukofotlar va medallarni berish; ushbu mukofotlar eng taniqli olimlar va istiqbolli ilmiy loyihalarga beriladi;
- yangi a'zolar, shu jumladan xorijiy assotsiatsiyalangan a'zolarni saylash;
- Comptes Rendus de l'Académie des Sciences nashrini chop etish (1835 yilda xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun yaratilgan).

# Akademiya missiyalari

## 2-missiya: Tabiiy fanlarni o'qitishga ko'maklashish

Tabiiy fanlar sohasidagi ta'lif bo'lajak fuqarolarning sog'lom, tanqidiy fikrlashga ega bo'lishi va ilmiy jamoalarning yuksak mukammallik darajasigacha yangilanishini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Akademiya:



- bugungi kunda boshlang'ich maktablardan universitet darajasigacha fan qanday o'qitilishi bo'yicha tadqiqotlarni tashkil etish;
- ta'lifni boshqarish hududiy organlarining akademik ilmiy maslahatchilari tarmog'ini yaratish;
- ilm-fan bilan shug'ullanishni davom ettirayotgan o'rta umumta'lif maktablarining istiqbolli bitiruvchilariga moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ko'rsatish vositasida ushbu missiyaning bajarilishiga o'z hissasini qo'shami.

## 3-missiya: Bilimlarni berish

Ilmiy jamoalar jamiyat oldida yangi bilimlarni tushuntirish va baham ko'rishga majburdirlar. Akademiya:

- asosiy ilmiy muammolar ochiq muhokama qilinishi mumkin bo'lgan jamoat yig'ilishlarini tashkil etish;
- o'z faoliyati va yutuqlarining umumfoydalanishdagi ikki tilli internet-sayti, resurs markazini taqdim etish;
- Akademianing fikr-mulohazalari va savollari bilan har chorakda ommaning e'tibori uchun xatlarni chop etish;
- ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shadigan olimlar va parlament a'zolarining birgalikdagi ishlarida ishtirok etish;
- Fransiya ilmiy merosining bir qismi bo'lgan o'z arxivlarini saqlab qolish;
- "Rassomlar uyi" nomi ostida muzeylarni ochish, butlash va xizmat ko'rsatish yo'li bilan ilmiy madaniyatni tarqatishda o'z rolini o'ynaydi.

# Akademiya missiyalari

## 4-missiya: Xalqaro hamkorlikka ko'maklashish

Ilm-fan o'z tabiatiga ko'ra universaldir va dunyo duch keladigan muammolar asosan global xarakterga ega. Akademiya:



- ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni boshlash va tashkil etish;
- akademiyalarning xalqaro tarmoqlarida ishtirok etish va ilgari surish;
- xalqaro ilmiy muassasalar va tashkilotlardagi Fransiyani namoyon etish vositasida xalqaro ilm-fan ko'lagini kengaytirishga yordam beradi.

## 5-missiya: Ekspertiza va maslahatning ikkiyoqlama rolini ta'minlash

Mumkin bo'lgan ilmiy va texnologik variantlarning arbitrajlashtirilishi saylangan siyosatchilarining vakolatiga kiradi, ammolular buni qat'iy, dalillangan asoslarda bajarishlari kerak. Akademiya davlat organlariga ekspert, maslahat organisifatida ish yuritishga chaqiriladi; agar zarur deb topsa, shunga o'xshash masalalar bo'yicha mustaqil ravishda tadqiqotlarni olib borishi ham mumkin. Uning xulosalari:



- hisobotlarda;
- eslatmalar va tavsiyalarda;
- Akademiya 2012 yilda buning uchun Ekspertiza nizomini qabul qilgan ekspertiza shaklida lozim tarzda chop etiladi.

# Akademiya arxivi

Akademiya arxivida 350 yildan ortiq tarix davomida Luvr qarshisidagi Fransiya instituti saroyi binolaridan birida saqlanadigan juda ko‘p hujjatlar yig‘ilib qoldi.

Ularning tarkibi bilan arxiv veb-saytida tanishib chiqish mumkin, u yerda ro‘yxatlarning bir qismi joylashtirilgan, o‘qish zalida esa ushbu hujjatlarni bepul suratga olishga ruxsat beriladi [9].

Arxiv hujjatlari orasida Fanlar akademiyasi yig‘ilishlari uchun materiallar (hisobotlar, ma’ruzalar, ma’ruzalar bo‘yicha munozaralar, qoralama yozuvlar) va bunda har biri uchun - 1795 yildan beri Akademiya yig‘ilishlari to‘g‘risida chop etilgan hisobotlar alohida konvertda (ushbu tasniflash tizimi shu kungacha saqlanib qolgan).



Bundan tashqari, bu yerda muhrlangan konvertlar mavjud. Bu Akademiya amaliyotida alohida an’ana bo‘lib, unga ko‘ra har kim u yerda taxmin qilingan ilmiy kashfiyotni tavsiflovchi matnni o‘z ichiga olgan konvertni qoldirishi mumkin. Konvert olinganda Akademiyada ro‘yxatdan o’tkaziladi, ammo uni faqat yuz yildan so‘ng ochish mumkin, bu akademiklardan iborat maxsus komissiya hozirligida amalga oshiriladi.



Shuningdek, 1714 yildan beri turli xil sovrinlar, masalan, Sofya Kovalevskayaga topshirilgan mukofotni berish bilan bog‘liq hujjatlar to‘plangan alohida fond mavjud. Shaxsiy fondlarni ham ta’kidlash kerak (ularning yuzga yaqini bor), ularning har biri shaxsiy yoki ilmiy yozishmalar, ilmiy ishlarning xomaki loyihalari, fotosuratlar va akademiklar hayoti davomida yoki olimlar vafotidan keyin ularning merosxo‘rlari tomonidan ixtiyoriy ravishda arxivga topshirilgan boshqa hujjatlardan iborat.



# Akademiya arxivi

Ilm-fan tarixini o'rganish uchun alohida qiziqish uyg'otadigan yana bir massiv – akademiya tashkil etilganidan beri akademiklar va xorijiy assotsiatsiyalangan a'zolarning shaxsiy ishjildlari. E'tibor bering, 1785 yilgacha Akademianing xorijiy a'zolari "muxbir a'zo" unvoniga ega bo'lganlar. Bu ularning har biri madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan xatlarda ilmiy kashfiyotlar haqida xabar bergan holda Fransiya fanlar akademiyasi a'zolari bilan maqolalar almashganliklarida izohlanadi.


Muxbir a'zoning saylanishi chop etilgan ishlarni kutubxonaga topshirish va o'z ilmiy asarlarini Fransiyada nashr etish imkoniyatini anglatardi. "Muxbir a'zo" unvoni 1803 yilda qayta tiklandi va 2002 yilda unga bo'lgan huquqlarni umrbod saqlab qolish bilan bekor qilindi [10].



# TheComptesRendus - Mathématique

Ilmiy maqolalar ochiqligining hozirgi sharoitida Fanlar akademiyasi bir tomonidan notijorat nashriyotlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirgan holda, boshqa tomondan esa so'nggi ilmiy yutuqlarni keng tarqatishni ilgari surgan tarzda bilimlardan erkin foydalanish imkonini ta'minlashning qat'iy tarafidordir [11].

TheComptesRendus - Mathématique — bu ochiq foydalanish va taqriz qilish imkoniga ega bo'lgan elektron ilmiy jurnal bo'lib, uning maqsadi tadqiqotchilarga asl tadqiqotlarni fransuz va ingliz tillarida chop etish imkoniyatini berish hisoblanadi. Bu Fransiya fanlar Aaademiyasining yettita nashridan biridir.



Shuningdek, jurnalda Fanlar akademiyasining matematika sohasidagi faoliyatini aks ettiruvchi obzor maqolalari, tematik nashrlari va matnlari chop etiladi.

2020 yildan beri jurnallarning siyosati Diamond ochiq foydalanish imkoni modeliga tayanib rivojlanmoqda. Maqolani chop etish uchun mualliflardan yoki chop etilgandan so'ng darhol erkin foydalanish imkoni mavjud bo'lgan maqolalarga kirish uchun o'quvchilardan hech qanday haq olinmaydi (quyidagi tahririyat maqolasiga qarang).

ComptesRendus - Mathématique mantiq, kombinatorika, sonlar nazariyasi, guruhlar nazariyasi, matematik tahlil, (xususiy hosilali) differential tenglamalar, geometriya, topologiya, dinamik tizimlar, matematik fizika, mexanikaning matematik muammolari, signallar nazariyasi, matematika fanining barcha sohalarini qamrab oladi.

The screenshot shows a page from a journal article. At the top is the logo of Institut de France Académie des sciences. Below it, the journal title 'Comptes Rendus Mathématique' is displayed. The author's name, David Gontier, is listed, along with the article title 'Spectral properties of periodic systems cut at an angle'. The volume and issue information are provided: Volume 359, issue 8 (2021), p. 949-958. A DOI link is also present: <https://doi.org/10.5802/crmath.251>. At the bottom of the page, there is a copyright notice: '© Académie des sciences, Paris and the authors, 2021. Some rights reserved.' and a Creative Commons Attribution 4.0 International License notice: 'This article is licensed under the CREATIVE COMMONS ATTRIBUTION 4.0 INTERNATIONAL LICENSE: http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/'. The logo of Centre Mersenne is also visible.

# Akademiya islohotlari

1793 yilda Akademiya uning qirollik unvoni va elitar tabiatni sababli boshqa qirollik akademiyalari bilan birga vaqtincha bekor qilindi.

Akademik ilmiy hayotning navbatdagi qayta tashkil etilishi 1795 yilda o‘z tarkibida sobiq Qirollik fanlar, gumanitar fanlar va san’at akademiyalarining qolgan uchta tarqoq "sinflari" ni birlashtirgan yagona muassasa - Fransiya institutining tashkil etilishi bilan boshlandi. 1816 yilda aynan Fransiya instituti doirasida Akademiyalar o‘zlarining birlamchi maqomlarini qaytarib oldilar [12].



Institutning g‘oyasi ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarini birgalikda namoyish etgan asosiy ilgari alohida qirollik akademiyalarini bitta tashkilot ostida birlashtirishda ifodalandi. Biroq, ilm-fan Ma’rifat mafkurasiga muvofiq birinchi o‘rinni egalladi va eng ko‘p sonli guruhni tashkil etdi. Garchi u hozirda Fransiya akademiyasi; Tasviriy san’at


akademiyasi; Yozuvlar va badiiy adabiyot akademiyasi; Axloqiy va siyosiy fanlar akademiyasini o‘z ichiga olgan Milliy institutning ajralmas qismi bo‘lib qolsa-da, 1816 yilda Akademiya o‘zining sobiq nomini qaytarib oldi [13].

Fransiya fanlar akademiyasida ("Qirollik" nomi turli xil konstitutsiyaviy o‘zgarishlarda bir paydo bo‘lib, bir g‘oyib bo‘lar edi), 19-asr davomida fan seksiyalarining soni o‘n bittagacha ko‘paydi va uning Comptes Rendus (1835 yildan beri nashr etilgan) nashri eng yuqori umumiy tematik fransuz ilmiy jurnaliga aylandi. Mukofot tizimining hajmi oshdi; 1975 yilda bir million frankdan sal ko‘proq (asosan xayr-ehsonlar hisobiga) miqdorda 64 xil toifadagi sovrinlar berildi.

# Akademiya islohotlari

1976 yilda yirik qayta tashkil etish va modernizatsiya qilish natijasida a'zolar soni sezilarli darajada ko'paytirilib, so'nggi ilmiy ishlanmalarga e'tibor qaratildi. Ikkitasosiy bo'lim tashkil etildi, ulardan biri matematika va fizika fanlari, ikkinchisi esa kimyoiy, tabiiy, biologik va tibbiyot fanlari bilan shug'ullanadigan bo'ldi.

Rezident a'zolarning umumiyligi 130 nafargacha, muxbir a'zolar - 160 nafargacha, chet ellik xodimlar esa - 80 nafargacha oshdi. Vakansiyalar mavjud ishtirokchilar vafotidan keyin ochiladi. Yosh a'zolarni rag'batlantirish maqsadida saylovlarda o'rirlarning yarmi 55 yoshgacha bo'lgan nomzodlar uchun ajratiladi [14].



1. Французская академия наук // <https://clck.ru/ataiB>
2. The Paris Academy // <http://eulerarchive.maa.org/historica/places/paris.html>
3. Création de l'Académie des sciences //  
<https://francearchives.fr/fr/commemo/recueil-2016/39370>
4. Устройство и функции академий наук в ряде зарубежных стран //  
<https://ria.ru/20130627/946256158.html>
5. Histoire de l'Académie des sciences // <https://www.academie-sciences.fr/fr/Histoire-de-l-Academie-des-sciences/histoire-de-l-academie-des-sciences.html>
6. ИНСТИТУТ ФРАНЦИИ // <https://bigenc.ru/education/text/2012808>
7. Gouvernance et instances // <https://www.academie-sciences.fr/en/Documents-a-telecharger/gouvernance-et-instances.html>
8. Five basic missions in the Academy's remit // <https://www.academie-sciences.fr/en/About-us/>
9. Les archives de l'Académie des sciences // <https://www.academie-sciences.fr/fr/Transmettre-les-connaissances/les-archives-de-l-academie-des-sciences.html>
10. Архив Французской академии наук: работа по формированию личных дел российских ученых – членов академии //  
<https://rusarchives.ru/publikacii/otechestvennye-arhivy/6428/mullek-arhiv-francuzskoy-akademii-nauk#03>
11. Comptes Rendus. Mathématique // <https://comptes-rendus.academie-sciences.fr/mathematique>
12. France, Académie des Sciences // <https://council.science/member/france-academie-des-sciences/>
13. Academy of Sciences // <https://www.britannica.com/topic/Academy-of-Sciences-French-organization>
14. Academies Of Science //  
<https://www.encyclopedia.com/history/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/academies-science>



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent - 2022 y.